

Xudayberdiyeva Shahrizoda

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbek Filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jahon Otin Uvaysiyning hayot yo'li va ijodiyoti haqida so'z yuritiladi. Uvaysiyning ijodini o'rghanish va o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi ilgari suriladi.*

Kirish so'zlar: *Uvaysiy, Nodira, muxammas, g'azal, devon, asarlar, hayot yo'li, ijodiy faoliyati, insonparvarlik, sog'inch, ishq, muhabbat, sadoqat tushunchalari.*

O'zbek adabiyoti tarixida mumtoz o'ringa ega bo'lgan Jahon Otin – Uvaysiy XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan mashhur o'zbek shoirasidir. U Marg'ilon shahrining Childo'xtaron mahallasida tahminan, 1779-yillarda dunyoga kelgan. Uvaysiyning otasi to'quvchi, ham kosib, o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan, onasi Chinnibibi esa o'z davrining donishmand ayollaridan bo'lib, maktabdorlik qilgan. Uvaysiy oilada xat savodini chiqarib, so'ng onasi yonida maktabdorlik qilgan, akasi Oxunjon hofiz yordamida kuy musiqaga ham rag'bat paydo qilgan. Uvaysiyning hayot yo'ldoshi Tojixon juda erta vafot etgach, u qizi Quyosh va o'g'li Muhammadxonlarni o'zi tarbiyalab voyaga yetkazgan. Uvaysiy oila a'zolarining ta'sirida ko'proq shaxsiy mutolaaga berilib, o'zbek, tojik va ozarbayjon allomalarining asarlarini muhabbat bilan o'qib, Vaysiy, Uvaysiy taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi va tez orada shoira, otin sifatida taniladi.

Uvaysiyning hayoti o'z davrida Markaziy Osiyoning katta ilm-fan va madaniyat markazlaridan bo'lgan Marg'ilon hamda Qo'qonning iste'dodli adib va shoirlari davrasida o'tdi. U Mohlaroyim – Nodira bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Nodira Uvaysiyni saroyga chaqirgan va o'sha yerda yashagan bu Uvaysiy uchun ham farzandlari uchun ham yaxshi bo'lgan. Uvaysiy Nodiraga she'riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan. U Nodira bilan Konibodom, Xo'jand, O'ratega, Toshkent, Andijon kabi shaharlarda bo'lib, ijodiy doiralar va ziyorolar bilan munosabat o'rnatgan. 1842-yili Buxoro amiri Nasrulloxon Qo'qonni egallagach, Marg'ilonga qaytib umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Oltmis yildan ko'proq umr ko'rgan Uvaysiydan bizga kattagina adabiy meros yetib kelgan. Uning qo'lyozma devonlari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Andijon Davlat Pedagogika institute kutubxonasida saqlanmoqda. Shoira devonining qo'lyozmalarini aniqlash, ommalashtirish va tadqiq etishda akademik A. Qayumov, professor H.Razzoqov va E. Ibrohimovlarning xizmatlari kattadir.

Shoiraning to'rtta devon tuzganligi ma'lum. Uvaysiy ijodining g'oyaviy-badiiy mohiyatidan o'zbek mumtoz adabiyoti an'analarini ijodiy davom ettirganligi ko'rinish turadi. Shoiraning Navoiy, Fuzuliy g'azallariga bog'langan ko'plab muxammaslari va naziralari, Bedil she'rlariga izdoshligi Uvaysiyning poetic balog'atidan dalolat beradi. Shoir adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, shaxs erki va ma'rifatparvarlik g'oyalarida go'zal va dilkash asarlar yaratadi, asarlarida insonni e'zozlash, odamning tabiat va hayot nozne'matlardan bahramand bo'lishga undash, do'stlik, vafo va sadoqat kabi o'zining ulug'vor niyatlarini Qur'on oyatlari, hadislari va tasavvufiy talqinlar bilan asoslangan holda ijodiy barkamollikka erishdi. Uvaysiy dastlab yuksak odamiylikni, shu odamiylikni qalb to'rida avaylovchi vafodor yorni ulug'lar ekan, uni quyosh bilan qiyos qiladi. Quyosh har tong ufqdan bosh ko'tarib o'zining otashin nuri bilan olamga, odamlarga o'z mehr va shavqatini sochadi. Shoir yor va oftob tashbehtarini qarshilantirish san'ati orqali katta mahurat bilan eng go'zal tuyg'ular silsilasini guldasta qiladi. Uning lirk qahramoni mushohadakor donishmand, vafoli oshiq. Shining uchun ham shoir:

Vaysiy, boshing uzra qo'y, xurshed tal'at yorni,

Bilmadingmu zarralar boshinda dastor oftob,

deb vafoli yorni eng zarif satrlar bilan ulug'laydi. Uning uchun yor bilan suhbat, do'st bilan mubohasa, dilkash mutrib taronalari yuksak bir sharafdir.

Uvaysiy hayotlik davridayoq nafis lirkasi bilan mashhur bo'lgan va zamondoshlarining e'tiborini qozongan. Lirk shew'laridan tashqari, uning "shahzoda Hasan", "shahzoda Husan" kabi liroepik asarlari va "voqeoti Muhammad Alixon" kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liroepik dostonlari islom tarixi bilan bog'liq voqealar yaratilgan.

Uvaysiy asarlari o'zining go'zal mazmuniylik va dilkash badiyligi bilan xalq ommasi orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari yo'lida kuylanib kelinadi. Uning xattotlar tomonidan ko'chirilgan uch nusxa qo'lyozma devoni O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute va Andijon universiteti kutubxonasida saqlanadi. Uvaysiyning o'n besh ming misraga yaqin she'riy asarlari mavjud. Shoiraning yakpora g'azallaridan: "Uvaysiyman", "Ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi", " Sog'indim", "Ishqida" radifli g'azallari inson qalbini o'ziga jalg etuvchi yo'sinda yozilgan;

"Uvaysiyman" radifli g'azali hasbi hol ruhida bo'lib, unda Uvaysiy o'z qalbining eng inja sirlarini qalamga olgan. Uni o'qish orqali shoiraning ko'ngil olamiga sayr etamiz:

Mehnat-u alamlarga mubtalo Uvaysiyman,

Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.

Istadimbu olamni, topmadim vafo ahlin,
Barchadin yumub ko'zni muddao Uvaysiyman.....

“Ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi” g’azalida odamlarning nokomilligidan, nafs manfaati yo’lidagi qilmishlari sabab pokiza tuyg’ular ularni tark etganligidan ozorlangan ezgu qalb egasining sezimlari aks etadi:

Zamona kulfatidin bu ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi.

Jarohat bo’ldi bag’rim tig’I bedodi raqiblardin,
Bu ko’tohfahm mardumdin ko’ngul dog’ o’ldi, dog’ o’ldi....

“Sog’indim” radifli g’azalida shoiraning o’g’li Muhammadxonning sarbozlikka yuborilishi munosabati bilan farzandidan judo onaning izardi, sog’inchini aks ettiradi:

Bu kun, ey do’stlar, farzandi jononimni sog’indim,
Gado bo’lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog’indim.

Musofirman, g’aribman, bekas-u ham benavodurman,
Vujudim dardg’a to’ldi, emdi darmonimni sog’indim....

Uvaysiyning yana bir mashhur g’azali “Ko’zum” radifli g’azalida “Layli va Majnun” an’anaviy obrazlari keltirib o’tilgan. Majnun – chin oshiq. Layli mazlumlik simvalidir. Majnun mumtoz she’riyatimizda, asosan, ana shu belgisi – chin oshiqligi, ishqdagagi vafosi bilan namoyon bo’ladi. Har qanday xo’rlik, azob, ruhiy va jismoniy qynoqlar, kamsitish va haqoratlar Majnunni Laylidan voz kechishiga sabab bo’lolmaydi.

Layli surati beqiyos husn, mukammal shaklu- shamoyil, chiroli qaddu – qomat ifodasi. Uning yonida oshiqning – “Majnuni hayron” ning o’rin olishi – ishqdan, uning rangin kechinmalaridan aftoda, ma’shuqasi bilan yonma- yon turish baxti bois aqlidan mosuvo, o’zligini unutgan inson qiyofasining shakllanishidir. Misrada Uvaysiy hech bir kimsa Laylining ishqida Majnundek yonolmasligini sevolmasligini hamda o’zining yoriga, ya’ni Ollohga bo’lgan muhabbatini Majnunning Layliga bo’lgan munosabatiga o’xshatadi.

Uvaysiy yetuk shoira sifatida shaklbozlikka, san’atpardonlikka qarshi edi. U asarlarida mazmun, fikr, g’oya muhim ekanligini e’tirof etgan o’rinlar bor:

Uvaysiy, qofiya tang o’lsa ham mazmuni mahvashdin
Hayolin mahkam et, ayg’ilki: “ ehromingga sallamno”...

Shoirning Sharqshunoslik instituti fondida 1837-raqam ostida saqlanayotgan mukammal devoni “shahzoda Hasan”, “shahzoda Husayn” dostoni va tugallanmagan “Voqeoti Muhammad Alixon” dostonlari bilan birga qo’shib ko’chirilgan. Mazkur devonda 269 g’azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba va chistonlar o’rin olgan.

Shoira lirkasida asosiy o’rinni ishq – muhabbat mavzusi egallaydi. Yuksak did va mahurat bilan yozilgan bu she’rlarda oshiq qalbning iztirobli kechinmalari o’z aksini topgan. Uvaysiy g’azallarining o’ziga xoslik jihatlari juda ko’p bo’lib, masalan u o’z davrining barcha ayollarining dardini kuyladi. Shu sababdan ham biz uni o’rganishdan haligacha chekinmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ma’naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999).
2. Hayitmetov A. Jahon Otin Uvaysiy lirkasi. Sharq yulduzi. 1982. 12-son, 161-bet
3. Uvaysiy. Devon. – Toshkent. 1963, 26-bet
4. Xo’jayev T. XV asr birinchi yarmi o’zbek adabiyoti va folklore. – Toshkent:”Fan:”, 2008. 66-bet.
5. Saviya.uz